

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2026-yil 22-aprel kuni o'tkaziladi

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/calendar/o-zkimyosanoat-aksiyadorlik-jamiyati-aksiyadorlarining-na>
vba

"O'ZKIMYOSANOAT" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2026-yil 22-aprel kuni soat 15:00 da Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy ("O'zkimyosanoat" AJ ma'muriy binosi)da o'tkaziladi.

Umumiy yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish 2026-yil 22-aprel kuni soat 14:00 da boshlanib, soat 15:00 gacha davom etadi.

KUN TARTIBI:

1. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. "O'zkimyosanoat" AJning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.
4. "O'zkimyosanoat" AJ ustaviga o'zgartirish kiritish orqali uni yangi tahrirda tasdiqlash.
5. "O'zkimyosanoat" AJning yangi tahrirdagi "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomini tasdiqlash.
6. "O'zkimyosanoat" AJning yangi tahrirdagi "Ijroiya organi (boshqaruvi) to'g'risida"gi nizomini tasdiqlash.
7. "O'zkimyosanoat" AJning 2026-yilga mo'ljallangan "Aksiyador kutilmasi"ni tasdiqlash.
8. "O'zkimyosanoat" AJning 2025-yil moliya-xo'jalik faoliyati yakunlarini auditorlik faoliyatining milliy standartiga muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish.
9. Boshqaruv raisining moliya, transformatsiya, axborot texnologiyalari va sun'iy intellektni joriy etish hamda xususiylashtirish masalari bo'yicha birinchi o'rinbosarini tayinlash.
10. 2025-yil yakunlari bo'yicha jamiyatda o'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini hamda "O'zkimyosanoat" AJning 2025-yil yakunlari bo'yicha Korporativ boshqaruvni baholash vositasi (baholash kartasi) asosida tayyorlangan hisobotini ko'rib chiqish.

Umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun aksiyadorlar reestri 2026-yil 26-mart holatiga hamda umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar reestri 2026-yil 16-aprel holatiga shakllantiriladi.

Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorlar o'zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan qatnashishlari so'raladi.

Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan tanishish uchun quyidagi manzil va telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin: Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy. Telefon: +(99878) 140-74-97, 140-74-98. E-mail: info@uks.uz

"O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi

